



REALIYANING BADIY ADABIYOTLARDA MILLIY KOLORITNI IFODALOVCHI TIL BIRLIGI SIFATIDA QO'LLANILISHI

N.O.Yuldashova

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7911877>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2023

Accepted: 25th April 2023

Online: 26th April 2023

KEY WORDS

Realiya, milliy kolorit, milliy so'zlar, lingvokulturema, madaniyatlararo munosabat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalarida realiya tushunchasi, uning ma'lum bir xalq madaniy me'rosida tutgan o'рни, milliy koloritning eng muhim jihatini ifodalashi hamda ularning tarjima qilishdagi muammolari alohida dolzarb ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi realiyalar tahlil qilingan bo'lib, har ikkala tilga xos misollar keltirilgan.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklaridir. Dunyada bir nechta xalq, millat, elatlar bor ekan ularning har birida o'ziga xoslik, milliylik asrlar davomida yashab kelmoqda va haligacham o'z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

Moddiy hayot deyilganda biz urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, musiqa va cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va boshqalarni tushunamiz. Tilshunoslikda hamda badiiy adabiyotda o'z aksini topgan mana shu milliy xususiyatlar yig'indisi milliy kolorit deb ataladi. Milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'zlar esa *realiyalar* hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda biror bir xalqqa millatga, milliylikga xos so'zlar deyiladi.

Ma'lum bir millatga xos bir so'zning realiya tarzida vujudga kelishi, avvalo, o'sha realiya yaratilgan geografik joy, mamlakat, millat, elat bilan bog'liq bo'lishini ham nazarga olish lozim. O'sha narsaning ma'lum ahamiyat kasb etishi bilan u boshqa mamlakatlarga, balki dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham mumkin. Taniqli tarjimashunos olim V.M.Rosselsning ta'kidlashicha, "Realiyalar – tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy narsa va predmet yoki tushunchalarning nomini ifodalaydigan so'zlardir".

Realiyalarning o'ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri bu ularning ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Ma'lum bir xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti realiyalarning mohiyatiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aynan shu sababli ham realiyalar haqida gapirilganda, albatta, milliy o'ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini hisobga olmasdan bo'lmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatda, bir vaqtning o'zida milliy va tarixiy bo'yoqdorlikka ega bo'ladilar.

Realiyalar ma'lum bir xalqlar hayotiga va ularning kundalik turmush sharoitida ishlatadigan og'zaki va yozma nutqida turli axborot vositalari orqali, adabiy-badiiy asarlar orqali kirib kelishi va o'zlashtirilishi mumkin. Realiyalar boshqa xalqlar turmush tarzida



mustahkam o'rin egallagan holda atamalar kabi keng ishlatilishi holatlari ham kuzatiladi. Ammo shunday holatlar kuzatilganda ham ularni atamalardan farqlash mumkin. Chunki realiyalar milliylik hamda tarixiylik koloritlariga ega bo'ladilar, ammo atamalarda bunday milliy kolorit va milliy bo'yoqdorlik mavjud bo'lmaydi. Misol uchun "afsona", "doston" so'zlari badiiy adabiyotda ishlatiladigan atamalar, janrlar bo'lib, bular realiya bo'la olmaydi chunki ularda milliy bo'yoqdorlik mavjud emas.

Realialarning turlari ko'p bo'lib ular har bir xalqning o'ziga xosligini bildiradi. Bunday realialarni o'zbek va ingliz tillarida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

1. Milliy kiyimlarga oid realiyalar:

O'zbek millatiga xos – do'ppi, atlas, adras, chopon, maxsi, kovush, lozim, paranji, rumol, yaktak, nimcha.

Ingliz millatiga xos realiyalar – kilt, apron, jeans, hat, bowler, parka.

2. Milliy taomlar va ichimliklarga xos realiyalar:

O'zbek millatiga xos – palov, halim, sumalak, norin, suzma, moshxo'rda, shovla, ugra, ko'k somsa, manti, qimiz.

Ingliz millatiga xos realiyalar- muffing, pudding, hot-dog, toffee, toast, Scotch whisky, scone

3. Raqs va musiqaga xos realiyalar:

O'zbek millatiga xos realiyalar- tanovar, shashmaqom, lapar, yor-yor

Ingliz millatiga oid realiyalar- jazz, blues, rock-and-roll, pop, Maypole dance

4. Cholg'u asboblarga xos realiyalar:

O'zbek millatiga xos realiyalar - dutor, nay, doira, karnay-surnay, g'ijjak

Ingliz millatiga oid realiyalar- saksafon, klarinet, gitara, skripka, pionino

5. Marosimlar va bayramlarga xos realiyalar:

O'zbek millatiga xos realiyalar- Navro'z, Hayit, Ramazon, Beshik kecha, Hosil bayrami, Sunnat to'yi.

Ingliz millatiga oid realiyalar- Christmas, Easter, Thanksgiving Day, Halloween.

6. Ijtimoiy va siyosiy sohaga oid realiyalar:

O'zbek millatiga xos realiyalar- Oily Majlis, Vazirlar Mahkamasi, mahalla, oqsoqol, choyxona, guzar.

Ingliz millatiga oid realiyalar- White House, House of Lords, House of Commons, Peace Corps.

Bunday realiyalarga yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Ular albatta har bir millatning, har bir xalqning o'ziga xos tarixiy jarayonlari davomida o'z qadr- qimmatini, asl ma'nosini yo'qotmay ajdodlardan avlodlarga milliy koloritni buzmaganda yetib kelmoqda.

Badiiy adabiyotlarda milliy koloritni ifodalaydigan milliy realiyalar juda ko'p. Ularni shu milliylik ruhini yo'qotmasdan kitobxonga yetkazib berish badiiy tarjimashunoslik bilan shug'ullanuvchilardan katta mas'uliyat talab qiladi. Tarjima juda nozik jarayon bo'lib, bunda tarjimon bor mahoratini qo'llab uni qayta yaratish ustida juda ko'p izlanishlar olib borishi kerak bo'ladi. Bir millatning milliy koloritini yo'qotmagan holda tarjimada eng maqbul usullardan foydalanib o'sha asar va tarixiy muhitni aniq yetkazib bera olgan tarjimonni o'z ishining ustasi deya olamiz. Masalan o'zbek, ingliz, rus millatida mavjud realiyalar boshqa



tillarda bo'lmashligi yoki mazmun jihatdan farq qilishi mumkin. Bunday realiyalarni tarjimada asl holida, milliy koloritni buzmaganda holda tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda transliteratsiya yoki transkripsiya usulidan foydalanish ancha samarali usul hisoblanadi deydi tilshunos olim E.Ochilov o'zining "Badiiy tarjima masalalari" kitobida.[3,2014]

Quyidagi realiyalarni o'zbek va ingliz tillarida yuqoridagi usullarda tarjimada badiiy asarlarda qo'llanganligiga misollar keltiramiz:

"Anovi yangi qoplag'an *ko'rpachalaringni* ber, *tanchaga* o'shani yopsin"[1,10b]

"Give to her newly made *kurpacha*, let them put it around *sandalwood*"

Bu misollarda *ko'rpacha*, *tancha* (sandal) o'zbek millatiga xos realiyalar bo'lib tarjimada hech qanday o'zgarishsiz o'z nomi bilan berilgan. Chunki bunday so'zlar boshqa xalqlarda uchramaydi. Bunday usulni tarjimashunoslikda transliteratsiya usulida tarjima qilish hisoblanadi.

"He got into his black *roadster* and was surprised to see a stack of *dollars* in the car"[7,608]

"U o'zining qora rangli *roadster* mashinasida o'tirdi va bir dasta *dollarlarni* ko'rib hayron qoldi"

Bu misolda esa *roadster* va *dollar* ingliz madaniyatiga oid realiyalar bo'lib, ular tarjimada ham o'zgarmasdan o'sha xalqning o'ziga xos so'z va ma'nolarni ifodalagan.

"U faqat bir-ikki tilim *handalak* yediyu uch-to'rt *payola* choy ichdi"[2,31b]

"He ate two pieces of *handalak* and drank several *pialas* of tea"

Bu misolda ham o'zbek xalqiga xos *handalak* va *payola* so'zlari realiya bo'lib, o'z nomi bilan o'zgarishsiz faqat transliteratsiya vositasida tarjima amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi hollarda realiyalar o'zga tilga kirib, bir muddat foydalanilgandan so'ng o'sha tilning lug'atiga kiradi va asta-sekinlik bilan o'zlashib boradi. Bunday xususiyatni internatsional (baynamilal) realiyalarga nisbatan qo'llash to'g'ri bo'ladi. Masalan, pul birliklari, taomlar yoki davlat tuzulishi bilan bog'liq so'zlar. Biroq ular o'zlashma so'zlar ko'rinishiga bo'lsalar-da, o'zlarining milliy o'ziga xosligini yo'qotmaydilar. Misol sifatida oladigan bo'lsak nemislarning markasi, amerikaliklarning dollari yoki Yevropa Ittifoqining yevrosi o'zlarining milliy koloritini, ishlab chiqarilgan yurti milliy xususiyatlarini yo'qotmasdan ham butun dunyo bo'ylab yuradilar. Boshqa xalqlar bu realiyalarni kundalik hayotda ishlatga ham, doimo dollar Aqsh niki ekanligini bilishadi.

XULOSA

Shuni aytish kerakki, realiya bu millatning, xalqning madaniyati, urf-odatlarini ko'rsatib beruvchi milliylik xususiyatiga ega linvomadaniyatshunoslikning asosiy til birligi ya'ni linvokulterema bo'lib, u badiiy adabiyot uchun ham g'oyatda muhim hisoblanadi. Badiiy adabiyotda realiyalarni to'g'ri qo'llay olish, tarjimashunoslikda esa ularning tarjimasini ma'lum bir xalqning milliy koloritiga ziyor yetkazmasdan yetkaza olish juda katta ahamiyat kasb etadi. Realiyalarni badiiy adabiyotlarda tarjima qilish tarjimonlardan nafaqat nazariy bilimlar balki, tarjima qilinayotgan asardagi xalqning o'ziga xos turmush tarzini, madaniyatini bilish ham talab etiladi. Biror bir so'zni tanlash badiiy tarjimada kata ahamiyatga egadir.



References:

1. A. Qodiriy "Days gone by". Toshkent 2018- 10b.
2. A. Qodiriy " O'tgan kunlar" Toshkent 2017- 31b.
3. E.Ochilov "Badiiy tarjima masalalari" Toshkent- 2014.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. O'qituvchi 1983- 235b.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. O'qituvchi 1987-286b.
6. Вайсбурд Е.М. Реалия как элемент страноведения. – Москва, 1972.-98с.
7. Zenovich E.S. chet el so'zlari va iboralari lug'ati. M.: AST: Olympus,2006.- 608b
8. www.lingvo-plus.ru/perevod-realiy/
9. www.lingvomaster.ru/files/391.pdf